

KASBIY STANDART

Televizion dasturlar yaratish va namoyish qilish sohasi

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Televizion dasturlar va namoyish qilish yo'nalishida o'quv jarayoni amaliy faoliyatning samarali integratsiyasini ta'minlashda, soha kadrlarining kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini uzluksiz yangilash hamda rivojlantirish mexanizmlarini yaratishda, tegishli kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash va kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim– kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

badiiy yechim — rejissyor tomonidan yaratilgan vizual va audiovizual (dekoratsiya, libos, yorug'lik, ovoz va boshqa detallarning umumiy estetik ko'rinishi) ko'rinishlar to'plami;

dekoratsiya – sahna tuzilishi, orqa fon, atrof-muhitni ifodalovchi buyumlar;

efir (translyatsiya) – tayyorlangan teledasturning (jonli yoki yozib olingan shaklda) televideniye orqali namoyish etilishi;

format– telemahsulotning maqsadi va auditoriyasiga mos shakli, turi va uslubi (yangiliklar, serial, tok-shou) ;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kadr – videodagi alohida surat yoki video tasvir;

kasting — rejissyor tomonidan kerakli rollar va obrazlarga mos nomzod aktyorlarni tanlash jarayoni;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi — mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari — xodimning mehnat predmeti bilan oʻzaro taʼsirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

media (tele-video) mahsulot — kasbiy faoliyat natijasi (tayyor videofilm, treyler, reklama roligi va h.k.);

montaj (tahrirlash) — tasvirga olingan kadrlarni videomontaj dasturlari (Adobe Premiere Pro, Final Cut) yordamida tartibli joylashtirish, qisqartirish, turli effektlar qoʻshish, ovoz va yorugʻlik bilan uygʻunlashtirish;

norasmiy taʼlim — taʼlim xizmatlari taqdim etilishini taʼminlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yoʻnaltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida oʻqitishdagi rasmiy taʼlimga qoʻshimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

ovoz — audio effektlar va fondagi tovush hamda musiqalarning mikrofonlar orqali qayd etilishi;

plan — kadrni olish masofasiga qarab (yaqin, oʻrta, umumiy plan);

postprodakshn — tasvirga olingan mahsulotga ishlov berish (montaj, effektlar, ovoz, grafika) bosqichi;

rakurs — kameraning obyektga nisbatan joylashuvi, burchagi;

rejissyor — media mahsulot (film, videorolik, sahna asari, spektakl va boshqa badiiy yoki ommaviy tadbirlar) ni ishlab chiqishga rahbarlik qiluvchi ijodkor;

rejissyor gʻoyasi — rejissyorning gʻoya va hissiy aksentlari asosida shakllantirilgan asarning umumiy interpretatsiyasi;

rejissyorlik ssenariysi — kadrma-kadr ishlab chiqilgan, tasvir, ovoz, harakat va boshqa turli effektlarni qamrab olgan ssenariy;

repetitsiya — sahnadagi harakatlar, nutq va his-tuygʻularni takomillashtirish uchun aktyorlar bilan oldindan oʻtkaziladigan mashgʻulot;

rekvizit — tasvirga olish jarayonida maqsadli ishlatiladigan va muayyan buyumlar;

ssenariy — informatsion, badiiy yoki hujjatli media mahsulotning syujet va dialoglar tavsiflangan yozma shakli;

sahnalashtirish (postanovka) — rejissyorning umumiy badiiy gʻoyasi asosida media mahsulotni sahnalashtirish jarayoni;

tasvirga olish (syomka) — dasturni operator, rejissyor, ovoz rejissyori, yorugʻlik boʻyicha mutaxassis va boshqalar ishtirokida kameralar orqali tasvirga olish jarayoni;

tayming – jonli efirda teledasturning davomiyligi va har bir qismning aniq vaqti;

yorug'lik – kadrda tasvir, muhit va kayfiyatning to'g'ri yoritilishi.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 8-noyabrdagi "Mustaqil teleradio kanallarni isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-3678-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-158-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi faoliyatini tashkil etish bo'yicha tadbirlar haqida" gi PQ-245-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 1-apreldagi "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida yuqori texnologiyali teleradio uskunalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1088-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-183-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 1-maydagi "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi televideniye muhandislik-texnika xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 128-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-dekabrdagi "Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 900-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

IFUT – iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi;

MMK-Mashg'ulotlarning milliy klassifikator;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Televizion dasturlar yaratish va namoyish qilish sohasi	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi	Televizion dasturlar yaratish va namoyish qilish sohasida kadrlar tayyorlash sohasini takomillashtirish, ko'rsatuvlarning g'oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga xizmat qiluvchi ijodkorlar faoliyatini samarali tashkil etish orqali milliy tele-radio dasturlar ishlab chiqarishni har tomonlama rivojlantirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	J seksiyasi Nashriyot, radioeshittirish hamda kontent ishlab chiqarish va tarqatish sohasidagi faoliyat 60 Dasturlar yaratish, teleko'rsatuv va radioeshittirish, axborot agentliklari va boshqa kontentlar tarqatish faoliyati 60.2 Televizion dasturlarni yaratish, efirga uzatish va video tarqatish bo'yicha faoliyat 60.20 Televizion dasturlarni yaratish, efirga uzatish va video tarqatish bo'yicha faoliyat 60.20.0 Televideniye dasturlari yaratish va efirga uzatish bo'yicha faoliyat	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Televizion dasturlar ishlab chiqarish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarga mos kasbiy standartlarni joriy etish orqali mutaxassis kadrlarning bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan zamonaviy talablarni aniqlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy mas'uliyatni oshirish va o'z faoliyatida mustaqilligini ta'minlash, xalqimizning g'oyaviy-badiiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qilishga qaratilgan faoliyat samaradorligini oshirish	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		34350095 Televideniye va radio programmalari rejissyori assistenti	5
		34350094 Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti	5
		34350078 Rejissyor assistenti (yordamchisi)	5
		34350070 Ovoz rejissyori assistenti	5
		26541016 Televideniye rejissyori	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi:	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	34350095 Televideniye va radio programmalari rejissyori assistenti	A1.5	Efirdagi yoki yozuvdagi dastur tayyorgarlik jarayonida rejissyorga yordam berish	A1.01.5	Dastur ssenariysi, texnik topshiriq va rejissyorlik rejasini o'rganish hamda ijodiy jamoa a'zolari bilan muvofiqlashtirish ishlarini olib borish
				A1.02.5	Dasturga zarur texnik vositalar (kamera, yoritish, mikrofon va boshqalar) tayyorligini nazorat qilish hamda ish jarayonida texnik xizmat ko'rsatish guruhini yo'naltirish
		A2.5	Tele- va radioefir jarayonining texnik hamda ijodiy tashkil etilishini ta'minlash	A2.01.5	Dastur davomida rejissyordan kelgan ko'rsatmalarni operator, ovoz rejissyori va boshqa ijodiy xodimlarga yetkazish hamda jarayonni sinxron boshqarish
				A2.02.5	Efirdan keyin yozilgan materiallarni arxivlash, montaj uchun belgilash va hisobot hujjatlarini tayyorlash
2	34350094 Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti	B1.5	Ovoz yozish, efir va montaj jarayonida ovoz rejissyoriga texnik va ijodiy yordam ko'rsatish	B1.01.5	Ovoz yozish uchun mikrofonlar, mikser pultlari, audio interfeys va boshqa uskunalarni tayyorlash hamda ularning sozligini tekshirish
				B1.02.5	Yozuv yoki efir jarayonida ovoz darajasi, shovqin va balansni kuzatib borish, rejissyorga aniqlik va sifatni ta'minlashda yordam berish
		B2.5	Audio materiallarni qayta ishlash va saqlash jarayonida texnik xizmat ko'rsatish	B2.01.5	Yozib olingan audio fayllarni montaj dasturlariga kiritish, tahrirlash uchun tayyorlash va belgilangan nomlash tizimiga muvofiq saqlash
				B2.02.5	Ovoz yozuvlari, effekt va musiqiy fonlar arxivini yuritish, ularning sifati va formatini nazorat qilish
3	34350078 Rejissyor assistenti (yordamchisi)	D1.5	Sahna, film yoki teleloyiha jarayonida rejissyorga tashkiliy va ijodiy yordam ko'rsatish	D1.01.5	Rejissyorlik ssenariysi, suratga olish jadvali va ijodiy topshiriqlarni o'rganish, ishtirokchilar o'rtasida vazifalarni muvofiqlashtirish

				D1.02.5	Suratga olish (yoki sahnalashtirish) jarayonida rejissyordan olingan ko'rsatmalarni ijodiy va texnik guruhlariga yetkazish hamda bajarilishini nazorat qilish
		D2.5	Suratga olish yoki sahnalashtirish jarayonining texnik va tashkiliy jihatdan tayyorlanishini ta'minlash	D2.01.5	Suratga olish joyini, dekoratsiya, yoritish, ovoz va rekvizit vositalarini oldindan tayyorlash, ularning soz holatini tekshirish
				D2.02.5	Har bir sahna yoki epizod bo'yicha ijodiy jamoa a'zolarining ish vaqtini, navbatchilik jadvalini va texnik hujjatlarni yuritish
4	34350070 Ovoz rejissyori assistenti	E1.5	Ovoz yozish va efir jarayonlarida ovoz rejissyoriga texnik yordam ko'rsatish	E1.01.5	Ovoz yozish uskunalari (mikrofon, mikser pulti, akustik tizimlar, kabellar)ni tayyorlash, sozlash va ularning texnik holatini nazorat qilish
				E1.02.5	Yozuv yoki efir jarayonida ovoz darajasini kuzatish, shovqin va buzilishlarni bartaraf etish, rejissyorga sifatli ovoz ta'minlashda ko'maklashish
		E2.5	Audio materiallarni qayta ishlash, saqlash va arxivlash jarayonini tashkil etish	E2.01.5	Yozib olingan ovoz materiallarini montaj dasturlariga yuklash, kerakli formatda tahrir va qayta ishlash uchun tayyorlash
				E2.02.5	Tayyor audio fayllarni arxivlash, nomlash tizimi asosida saqlash va ularning sifat nazoratini amalga oshirish
5	26541016 Televideniye rejissyori	F1.6	Televideniye dasturlari va ko'rsatuvlarini badiiy, texnik hamda ijodiy jihatdan rejalashtirish va boshqarish	F1.01.6	Dastur (ko'rsatuv, reportaj, film, reklama roligi) ssenariysini ishlab chiqish, badiiy g'oya va rejissyorlik konsepsiyasini shakllantirish
				F1.02.6	Suratga olish jarayonida ijodiy jamoa (operator, ovoz rejissyori, yorituvchi, montajchi va boshqalar) ishini muvofiqlashtirish hamda sifatli efir tasvirini ta'minlash

		F2.6	Televideniye dasturlarining efirga tayyorlanishi va texnik sifatini nazorat qilish	F2.01.6	Montaj jarayonini boshqarish, video va audio materiallarning uzviyligini ta'minlash, yakuniy variantni efir uchun tasdiqlash
				F2.02.6	Efirda texnik nosozliklar, ovoz va tasvir muvofiqligini kuzatish, sifat standartlariga muvofiqligini nazorat qilish hamda hisobot hujjatlarini tayyorlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Televideniye va radio programmalari rejissyori assistenti
Mashg'ulot nomining kodi	34350
TMR bo'yicha malaka darajasi	5
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarni ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	o'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Xizmatchi mutaxassis Televideniye va radio programmalari rejissyori assistenti

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:		Kasbning nomi:
	5		Rejissyor assistenti (yordamchisi)
	5		Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti
	5		Ovoz rejissyori assistenti
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
A1.5 Efirdagi yoki yozuvdagi dastur tayyorgarlik jarayonida rejissyorga yordam berish	A1.01.5 Dastur ssenariysi, texnik topshiriq va rejissyorlik rejasini o'rganish hamda ijodiy jamoa a'zolari bilan muvofiqlashtirish ishlarini olib borish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Dastur ssenariysi va rejissyorlik rejasini tahlil qilib, undagi sahna, kadr va ovoz yechimlarini aniqlash	
		2. Operator, ovoz rejissyori, dekorator va boshqa ijodiy jamoa a'zolari bilan topshiriqlarni muvofiqlashtirish	
		3. Texnik topshiriqdagi talablarni ijodiy jamoa ish jarayoniga moslashtirib, ishlab chiqiladigan mahsulot sifatini nazorat qilish	
		Ko'nikma:	
		Ssenariy va rejissyorlik rejasi asosida ijodiy jamoa faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish	
		Audiovizual mahsulot yaratish jarayonida texnik va ijodiy talablarni uyg'unlashtirish	
		Kommunikatsiya va jamoada samarali muloqot olib borish	
		Bilim:	
		Televideniye va radio dasturlari ishlab chiqarish texnologiyasi, ssenariy va rejissyorlik rejasining tuzilishi	
		Audiovizual san'atning texnik va estetik asoslari (kamera burchaklari, kadr kompozitsiyasi, ovoz balansi va h.k.)	
		Jamoaviy ijodiy faoliyatni boshqarish, muvofiqlashtirish va kommunikatsiya psixologiyasi asoslari	
	A1.02.5 Dasturga zarur texnik vositalar (kamera, yoritish, mikrofon va boshqalar) tayyorligini nazorat qilish hamda ish jarayonida texnik xizmat ko'rsatish guruhini yo'naltirish	Mehnat harakatlari:	
		1. Dastur boshlanishidan oldin texnik vositalarning (kamera, yoritish, mikrofon va boshqa jihozlar) ishlash holatini tekshirish	
		2. Ish jarayonida texnik xizmat ko'rsatish guruhining ish faoliyatini boshqarish va yo'naltirish	
		3. Texnik nosozliklarni aniqlash va ularni tezkor bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish	
		Ko'nikma:	
		Texnik vositalarni tayyorlash va ularning ish faoliyatini nazorat qilish	
		Texnik xizmat ko'rsatish guruhini boshqarish, yo'naltirish va muvofiqlashtirish	
		Muammolarni tezkor aniqlash va texnik yechimlar ishlab chiqish	
	Bilim:		

		Kamera, yoritish, mikrofon va boshqa texnik vositalarning tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Televideniye va radio dasturlarida texnik vositalarni qo'llash tartibi va xavfsizlik qoidalari
		Audiovizual dastur ishlab chiqarish jarayonida texnik vositalarning roli va ularning samarali ishlatilishi
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Rejissyor rahbarligida efir yoki yozuv jarayonining tayyorgarlik bosqichida ijodiy va texnik jarayonlarning muvofiqligini ta'minlash uchun mas'ullik
		2. Dastur ssenariysi, texnik topshiriq va rejissyorlik rejasi asosida tashkiliy ishlarni mustaqil bajarish
		3. Efir yoki yozuvga tayyorlanayotgan jamoa faoliyatini rejissyor ko'rsatmalari asosida muvofiqlashtirish
A2.5 Tele- va radioefir jarayonining texnik hamda ijodiy tashkil etilishini ta'minlash	A2.01.5 Dastur davomida rejissyordan kelgan ko'rsatmalarni operator, ovoz rejissyori va boshqa ijodiy xodimlarga yetkazish hamda jarayonni sinxron boshqarish	Mehnat harakatlari:
		1. Rejissyordan kelgan ko'rsatmalarni o'z vaqtida va aniq tarzda ijodiy jamoaga yetkazish
		2. Operator, ovoz rejissyori va boshqa xodimlarning ishini dastur jarayonida sinxronlashtirish
		3. Jarayon davomida yuzaga keladigan texnik yoki ijodiy muammolarni aniqlab, tezkor yechimlar ishlab chiqarish
		Ko'nikma:
		Rejissyor ko'rsatmalarini tushunish va ularni ijodiy jamoaga samarali yetkazish
		Audiovizual dastur jarayonini sinxron boshqarish va muvofiqlashtirish
		Muammolarni tez aniqlash va yechim ishlab chiqish
		Bilim:
		Televideniye va radio dasturlari ishlab chiqarish jarayoni va uning texnik-ijodiy bosqichlari
		Audiovizual mahsulot yaratish jarayonida ishchi guruhlarining roli va mas'uliyatlari
		Sinxron boshqarish, kommunikatsiya va jamoaviy ish asoslari
	A2.02.5 Efirdan keyin yozilgan materiallarni arxivlash, montaj uchun belgilash va hisobot hujjatlarini tayyorlash	Mehnat harakatlari:
		1. Efirdan keyin yozilgan audio va video materiallarni saralash va arxivlash
		2. Montaj jarayoni uchun materiallarni belgilash va tartibga solish
		3. Ish jarayoni va foydalanilgan materiallar bo'yicha hisobot hujjatlarini tayyorlash
		Ko'nikma:
		Audio va video materiallarni tizimli arxivlash va tasniflash
		Montaj jarayoni uchun materiallarni tayyorlash va belgilash
		Hisobot hujjatlarini to'g'ri va aniq shaklda tayyorlash
		Bilim:
		Audio va video formatlar, ularni saqlash va arxivlash qoidalari

		Montaj jarayoni va dastur yaratish texnologiyalari
		Hisobot hujjatlari tayyorlash tartibi va ish hujjatlarini yuritish qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Efir jarayonining texnik va ijodiy sifatini ta'minlash, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish 2. Rejissyor ko'rsatmalariga muvofiq texnik va ijodiy ishlarni mustaqil tashkil etish va nazorat qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		Kameralar – studiya va maydon kameralari, qo'lda ishlatiladigan DSLR va ENG kameralar Mikrofonlar – lavalier (yopishtiriladigan), shotgun, studiya kondensator mikrofonlari, dinamik mikrofonlar Audio mikserlar – ovoz balansi va signallarini boshqarish uchun Yoritish vositalari – LED panellar, tungi yoki studiya yoritish lampalari, yoritish softboxlari Video montaj stansiyalari – Adobe Premiere, Final Cut Pro, DaVinci Resolve va boshqa dasturlar ishlatiladigan kompyuterlar Audio ishlov berish qurilmalari – Pro Tools, Audacity yoki Adobe Audition dasturlari uchun jihozlangan ish stansiyalari Monitorlar – video va audio sifatini tekshirish uchun studiya monitorlari

Kasbning nomi	Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti	
Mashg'ulot nomining kodi	34350	
TMR bo'yicha malaka darajasi	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; Ishga munosabat va xulq-atvor: -Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; -Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; -O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; -Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; -Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; -Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; -Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; -Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; -Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; -Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish. -Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarni ko'rish va utilizatsiya qilish; -Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	o'rta maxsus professional ta'lim, boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Xizmatchi mutaxassis Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

		5	Rejissyor assistenti (yordamchisi)
		5	Televideniye va radio ovoz rejissyori assistenti
		5	Ovoz rejissyori assistenti
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.5 Ovoz yozish, efir va montaj jarayonida ovoz rejissyoriga texnik va ijodiy yordam ko'rsatish	B1.01.5 Ovoz yozish uchun mikrofonlar, mikser pultlari, audio interfeys va boshqa uskunalar tayyorlash hamda ularning sozligini tekshirish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Mikrofon, mikser pulti va audio interfeys kabi uskunalar dastur talablari bo'yicha tayyorlash va ulash	
		2. Uskunalar sozlash va sinovdan o'tkazish, ovoz sifatini tekshirish	
		3. Ovoz yozish jarayonida nosozliklarni aniqlash va texnik guruh bilan muvofiqlashtirib bartaraf etish	
		Ko'nikma:	
		Mikrofonlar, mikser pultlari va audio interfeyslarni tayyorlash va sozlash	
		Ovoz yozish jarayonini texnik jihatdan boshqarish va muvofiqlashtirish	
		Texnik nosozliklarni aniqlash va yechim ishlab chiqish	
		Bilim:	
		Ovoz yozish texnologiyalari, mikrofon turlari va audio interfeyslar ishlash prinsiplari	
		Mikser pultlari va audio dasturlarda ovoz balansini sozlash asoslari	
		Televideniye va radio dasturlarida ovoz sifati va texnik xavfsizlik qoidalari	
	B1.02.5 Yozuv yoki efir jarayonida ovoz darajasi, shovqin va balansni kuzatib borish, rejissyorga aniqlik va sifatni ta'minlashda yordam berish	Mehnat harakatlari:	
		1. Yozuv yoki efir davomida ovoz darajasi, shovqin va balansni real vaqt rejimida nazorat qilish	
		2. Ovoz sifati pasaygan holatlarda rejissyorga xabar berish va sozlashda yordam ko'rsatish	
		3. Efir jarayonida ovoz manbalarini muvofiqlashtirib, sifatli eshittirishni ta'minlash	
		Ko'nikma:	
		Ovoz darajasi, shovqin va balansni aniqlash hamda boshqarish	
		Ovoz texnikasi (mikser pult, monitor tizimi va boshqalar) bilan ishlash	
		Rejissyor va texnik jamoa bilan tezkor aloqa o'rnatish va muvofiqlashtirish	
		Bilim:	
		Ovoz darajasi, chastota, shovqin va balansni boshqarish nazariyasi	
		Mikser pulti va audio nazorat tizimlarining ishlash prinsiplari	

		Efir va yozuv paytida ovoz sifatini saqlash uchun texnik xavfsizlik va sifat standartlari
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Ovoz rejissyori rahbarligida ijodiy topshiriqlarni va texnik tayyorgarlik ishlarini mustaqil bajarish
		2. Jarayon davomida yuzaga keladigan texnik nosozliklarni tezkor aniqlash va bartaraf etishda javobgarlik
		3. Ovoz rejissyori tomonidan belgilangan yo'nalish asosida, lekin amaliy va texnik masalalarda muayyan mustaqildir
B2.5 Audio materiallarni qayta ishlash va saqlash jarayonida texnik xizmat ko'rsatish	B2.01.5 Yozib olingan audio fayllarni montaj dasturlariga kiritish, tahrirlash uchun tayyorlash va belgilangan nomlash tizimiga muvofig saqlash	Mehnat harakatlari:
		1. Yozib olingan audio fayllarni tanlab, montaj dasturiga (masalan, Adobe Audition, Pro Tools yoki Reaper) yuklash
		2. Audio fayllarni tahrir jarayoni uchun tartiblash va kerakli belgilar bilan nomlash
		3. Tayyorlangan audio materiallarni belgilangan format va nomlash tizimiga muvofiq saqlash hamda arxivga joylashtirish
		Ko'nikma:
		Audio fayllarni montaj dasturlarida yuklash va tahrir uchun tayyorlash
		Fayllarni tizimli nomlash, saqlash va arxivlash
		Dasturiy vositalar orqali audio fayllar sifatini saqlagan holda uzatish
		Bilim:
		Audio fayllar formatlari, ularni montaj dasturlarida ishlatish qoidalari
		Montaj dasturlari (Adobe Audition, Pro Tools, Reaper va boshqalar) bilan ishlash asoslari
		Audio materiallarni nomlash, saqlash va arxivlash standartlari hamda axborot xavfsizligi talablari
	B2.02.5 Ovoz yozuvlari, effekt va musiqiy fonlar arxivini yuritish, ularning sifati va formatini nazorat qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Yozilgan ovoz va musiqiy fayllarni nomlash, tartiblash va arxiv papkalariga joylashtirish
		2. Audio fayllarning texnik sifati (bitrate, chastota, format) va ovoz balansini tekshirish
		3. Arxivdagi materiallarni muntazam yangilash, zaxira nusxalarini yaratish va tartibli saqlash tizimini yuritish
		Ko'nikma:
		Audio fayllarni professional dasturlar (Adobe Audition, Pro Tools, Reaper) yordamida tekshirish va tahrirlash
		Arxiv fayllarini to'g'ri tashkil qilish, zaxiralash va kerakli materialni tez topish
		Ovoz sifati, balansi va formatini aniqlash hamda nosozliklarni bartaraf etish
		Bilim:
		Ovoz fayllari formatlari (WAV, MP3, FLAC va boshqalar) hamda ularning texnik xususiyatlari

		Ovoz yozish, montaj va mastering jarayonlarining texnologik asoslari
		Arxivlashtirish, fayl nomlash va media ma'lumotlarni boshqarish standartlari (metadata, fayl strukturasi)
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Audio arxivning butligi, fayllarning to'g'ri saqlanishi va zaxira nusxalarini yaratish uchun javobgarlik
		2. Ovoz yozish va qayta ishlash uskunalari mustaqil sozlash va ularning ishlash holatini nazorat qilish
		3. Texnik muammolarni dastlabki darajada aniqlash va bartaraf etish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish
